



THE IMPACT OF DEMOGRAPHIC DEVELOPMENT ON EMPLOYMENT IN THE FERGANA VALLEY (1991–2025)

Fakhriddin Abdulboqiyev

Researcher, Urgench State University (UrSU)

E-mail: abdulboqiyevfakhriddin1993

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: demographic development, employment, labour resources, demographic pressure, time lag, fertility, urbanisation, Fergana Valley, labour market, demographic dividend.

Received: 18.07.26

Accepted: 19.07.26

Published: 20.07.26

Abstract: The article analyses the impact of demographic development on employment in the Fergana Valley in 1991–2025 from a historical-demographic perspective. Drawing on statistical and archival sources, it examines the twofold growth of the valley's population, the high demographic pressure under limited land and water resources, the dynamics of labour resources, and urbanisation processes. The central finding is the identification and substantiation of a time lag of roughly fifteen to twenty years between demographic processes (fertility waves) and the growth of labour resources, which demonstrates the need to plan employment policy on a long-term demographic horizon.

FARG'ONA VODIYSIDA DEMOGRAFIK RIVOJLANISHNING AHOLI BANDLIGIGA TA'SIRI (1991–2025-yillar)

Faxriddin Abdulboqiyev

UrDU ilmiy tadqiqotchisi

Email: @abdulboqiyevfakhriddin1993

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: demografik rivojlanish, aholi bandligi, mehnat resurslari, demografik bosim, vaqt lagi, tug'ilish, urbanizatsiya, Farg'ona vodiysi, mehnat bozori, demografik dividend.

Annotatsiya: Maqolada 1991–2025-yillarda Farg'ona vodiysida demografik rivojlanishning aholi bandligiga ta'siri tarixiy-demografik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Vodiy aholisining ikki baravar o'sishi, cheklangan yer-suv resurslari sharoitidagi yuksak demografik bosim, mehnat resurslari

dinamikasi va urbanizatsiya jarayonlari statistik va arxiv manbalari asosida o'rganiladi. Tadqiqotning markaziy natijasi — demografik jarayonlar (tug'ilish to'liqlari) bilan mehnat resurslari o'sishi o'rtasida taxminan o'n besh–yigirma yillik kechikish (“vaqt lagi”) mavjudligining aniqlanishi va dalillanishidir. Bu qonuniyat aholi bandligi siyosatini uzoq muddatli demografik istiqbol asosida rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ (1991–2025 ГГ.)

Фахриддин Абдулбокиев

Научный исследователь

Ургенчского государственного университета

E-mail: @abdulboqiyevfahridin1993

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: демографическое развитие, занятость населения, трудовые ресурсы, демографическое давление, временной лаг, рождаемость, урбанизация, Ферганская долина, рынок труда, демографический дивиденд.

Аннотация: В статье анализируется влияние демографического развития на занятость населения в Ферганской долине в 1991–2025 годах с историко-демографических позиций. На основе статистических и архивных источников рассматриваются двукратный рост населения долины, высокое демографическое давление в условиях ограниченных земельно-водных ресурсов, динамика трудовых ресурсов и процессы урбанизации. Центральный результат исследования — выявление и обоснование временного лага примерно в пятнадцать–двадцать лет между демографическими процессами и ростом трудовых ресурсов.

Kirish. Aholi bandligi masalasini tarixiy jihatdan o'rganishda demografik omil markaziy o'rin tutadi. Mehnatga layoqatli aholining soni, yosh-jins tarkibi, hududiy taqsimlanishi va o'sish sur'ati mehnat bozoridagi talab-taklif nisbatini, shu orqali bandlik darajasini bevosita belgilaydi. Bu bog'liqlik Farg'ona vodiysi misolida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi: mamlakat hududining atigi 4,1 foizini egallagan mintaqa respublika aholisining qariyb 28,6 foizini o'zida jamlaydi. [7; 6-7-b.] Shu bois vodiyning demografik tarixi bilan bandlik tarixini bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi 1991–2025-yillarda Farg'ona vodiysida demografik rivojlanishning aholi bandligiga ta'sirini tarixiy dinamikada tahlil qilish va bu ta'sirning o'ziga

xos qonuniyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda vodiy aholisining takror barpo bo'lish jarayonlari, mehnat resurslarining shakllanishi hamda bu jarayonlarning bandlik holatiga ko'rsatgan ta'siri ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda aholishunoslik va tarixiy-demografik tadqiqotlar maktabi mustaqillik yillarida sezilarli rivojlandi. Vodiy aholisining takror barpo bo'lishi va mehnat resurslari muammolari O. B. Ata-Mirzayev, M. R. Bo'riyeva, R. Qodirov [3; 37-38-b.] kabi olimlarning ishlarida yoritilgan; aholini takror barpo etishning statistik baholanishi A. Mamatqulov va M. Qodirova tomonidan tahlil qilingan. [6; 38-39-b.] Demografik jarayonlarning hududiy xususiyatlari Z. A. Tolmetova, [4; 69-70-b.] mustaqillik davri demografik siyosati esa N. A. Abdurashidova [2; 14-15-b.] tomonidan tadqiq etilgan. Biroq bu ishlarda demografik rivojlanishning aholi bandligiga ta'siri Farg'ona vodiysi misolida, mehnat resurslari dinamikasi bilan uzviy bog'liq holda va yaxlit tarixiy jarayon sifatida maxsus o'rganilmagan.

Tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga tayangan holda tarixiy-xronologik, qiyosiy-tarixiy, statistik-tahliliy va retrospektiv usullardan foydalanilgan. Manbaviy bazani Milliy statistika qo'mitasi va viloyat statistika boshqarmalarining ma'lumotlari, viloyat davlat arxivlari fondlarining hujjatlari hamda ilmiy adabiyot tashkil etadi. Statistik ko'rsatkichlar, imkon qadar, bir necha mustaqil manba o'zaro qiyoslangan holda, tanqidiy tahlil asosida keltiriladi.

Tahlil va natijalar. Demografik bosim va aholi o'sishi dinamikasi

Vodiyning ijtimoiy-geografik holatini tavsiflashda "demografik bosim" tushunchasi markaziy o'rin tutadi: bu yerda tabiat nisbatan "yupqa" va nozik, demografik yuk esa katta bo'lib, aholi va xo'jalikning birgalikdagi ta'siri kuchli antropogen bosimni keltirib chiqaradi. Aynan demografik bosim, sug'oriladigan yer va suv zaxiralarining cheklanganligi mintaqani an'anaviy agrar modeldan industrial-innovatsion yo'nalishga o'tishga undagan asosiy omil bo'ldi. Demografik o'tish nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, vodiy hozirda o'tish jarayonining o'rtasida turibdi: tug'ilish bosqichma-bosqich pasayib, mehnatga layoqatli yoshdagilar ulushi ortmoqda. Bu — iqtisodiy nazariyada "demografik dividend" deb ataladigan imkoniyat oynasini ochadi, biroq undan amalda foydalanish bevosita yangi ish o'rinlari yaratish qobiliyatiga bog'liqdir.

Aholi sonining o'sishi vodiy demografiyasining o'zagini tashkil etadi. 1991-yilda vodiy aholisi 5 555,4 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 9 827,1 ming kishiga, 2025-yilda esa 10 781,2 ming kishiga — ya'ni qariyb 1,9 baravarga ko'paydi. O'sish jarayoni bir tekis kechmagan: 1991–1998-yillarda yillik o'rtacha o'sish 102,2 foizni tashkil etgan bo'lsa,

1999–2006-yillarda u 101,4 foizgacha pasaygan, 2010–2020-yillarda esa yana 101,9 foizgacha ko‘tarilgan. Bu to‘lqinsimon dinamika tasodifiy emas: u to‘g‘ridan-to‘g‘ri tug‘ilish ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar va, kechiktirilgan ta’sir tariqasida, mehnat resurslari sonidagi keyingi tebranishlar bilan bog‘langan. Vodiy o‘sinh sur’ati bo‘yicha respublikaning aksariyat mintaqalaridan oldinda turadi, bu esa uni demografik bosim jihatidan mamlakatdagi eng zo‘riqqan hududlardan biriga aylantiradi.

Demografik salohiyat vodiy ichida ham notekis taqsimlangan. Tumanlar kesimida 1991–2025-yillarda o‘sinh sur’atlari keskin farqlangan: Andijon viloyatidagi Jalaquduq tumanida aholi qariyb 2,4 baravar, Farg‘ona viloyatidagi Quva tumanida 2,1 baravar ko‘paygan bo‘lsa, sanoat markazi bo‘lmish Xonobodda o‘sinh 1,2 baravardan oshmagan. Bunday sub-hududiy tafovutlar demografik xulq-atvor, etnodemografik jarayonlar va ma’muriy-hududiy islohotlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular mehnat resurslari shakllanishi va mahalliy mehnat bozorlaridagi ish o‘rinlariga ehtiyoj hajmini turlicha belgilaydi. Bu holat bandlik siyosatini hududiy jihatdan chuqur tabaqalashtirishni taqozo etadi.

Vodiy ichidagi viloyatlar demografik salohiyati jihatidan bir-biridan farq qiladi. Aholi soni bo‘yicha yetakchi Farg‘ona viloyatining vodiy aholisidagi ulushi 1991-yildagi 39,8 foizdan 2020-yilda 38,6 foizga tushdi (mutlaq son ortgani holda), Namangan viloyatining ulushi esa tug‘ilishning yuqori saqlanib qolgani hisobiga ortdi. Tabiiy o‘sinh ko‘rsatkichi ham o‘ziga xos dinamikaga ega: 1991-yilda vodiyda tabiiy o‘sinh 166,3 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, SSSRning parchalanishi, davlatlararo migratsiyaning kuchayishi va iqtisodiy qiyinchiliklar ta’sirida 2001-yilga kelib u 101,7 ming kishigacha tushdi; 1991–2020-yillar oralig‘ida o‘rtacha yillik daraja 147,3 ming kishi atrofida bo‘ldi. 2025-yilda faqat Farg‘ona viloyatining o‘zida 98,3 ming bola tug‘ilib, tabiiy o‘sinh 79,6 ming kishini tashkil etdi. Bu raqamlar tug‘ilishning hozirgi bosqichda biroz pasayishiga qaramay, vodiy aholisining hamon yuqori sur’atda o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.

Aholi salohiyati bo‘yicha vodiy tumanlarini uch guruhga ajratish mumkin: demografik salohiyati yuqori (250–300 ming kishi) bo‘lgan Andijon, Asaka, Shahrixon, Chust, Farg‘ona, Qo‘qon, Quva, Izboskan kabi tumanlar; salohiyati o‘rtacha (150–250 ming kishi) bo‘lgan tumanlarning katta qismi; hamda salohiyati past (50–150 ming kishi) bo‘lgan Bo‘z, Ulug‘nor, So‘x, Mingbuloq, Yozyovon kabi tumanlar. Demografik salohiyati past tumanlarning bir qismi sovet tuzumining bo‘sh yerlarni o‘zlashtirish siyosati natijasida tashkil etilgan bo‘lib, ularda aholi nisbatan kech va siyrak joylashgan. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ma’muriy-hududiy islohotlar esa sub-hududiy birliklarning demografik konyunkturasi va lokal mehnat bozorlarining shakllanishini belgilagan institutsional omillardan biri bo‘ldi; shu bois mikrodaraja

statistikasini tahlil qilishda ma'muriy chegaralar o'zgarishini hisobga olish ilmiy obyektivlik talabidir.

Mehnat resurslari dinamikasi va "vaqt lagi" qonuniyati

Demografik jarayonlarga muvofiq ravishda mehnatga yaroqli aholi ulushi izchil ortib bordi. Vodiya mehnat resurslari 1991-yilda 2 738,5 ming, 2000-yilda 3 431,8 ming, 2010-yilda 4 736,0 ming, 2020-yilda 5 400,9 ming kishini tashkil etdi. Muhimi shundaki, mehnat resurslarining o'sish sur'ati o'n yilliklar kesimida sezilarli tebrandi: 1991–2000-yillarda +693,3 ming, 2000–2010-yillarda eng yuqori darajada — +1 304,2 ming, 2010–2020-yillarda esa +664,9 ming kishi.

Davr	Mehnat resurslari o'sishi (ming kishi)	Demografik sabab
1991–2000	+693,3	1970-yillar tug'ilish darajasi
2000–2010	+1 304,2 (cho'qqi)	1980-yillardagi yuqori tug'ilish to'loqining mehnat yoshiga yetishi
2010–2020	+664,9 (sekinlashuv)	1990-yillardagi tug'ilish pasayishining aks-sadosi

1-jadval. Farg'ona vodiysida mehnat resurslari o'sishining o'n yilliklar kesimidagi dinamikasi va "vaqt lagi".

O'sishning aynan 2000–2010-yillardagi cho'qqiga chiqishi tarixiy jihatdan izohlanadi. 1970-yillarning boshidan ittifoq miqyosida tug'ilishni rag'batlantirishga qaratilgan demografik siyosat aholi o'sishiga kuchli turtki bergan; 1980-yildagi 33,7 dan (har 1000 kishiga) 1990-yildagi 34,6 gacha ko'tarilgan tug'ilish darajasi vodiya yuqori tug'ilish to'loqini hosil qilgan. Aynan shu avlod 2000-yillarning boshida mehnat yoshiga yetib, mehnat resurslarining rekord darajada o'sishini ta'minladi. Aksincha, 1990-yillardagi tug'ilishning pasayishi (tug'ilganlar soni 1991-yildagi 201,0 mingdan 2001-yilda 135,9 minggacha kamaydi) 2010–2020-yillarda mehnat resurslari o'sishining sekinlashuvida o'z aksini topdi.

Ushbu mexanizm tadqiqotning markaziy natijasini tashkil etadi: demografik jarayonlar (tug'ilish to'loqlari) bilan mehnat resurslari o'sishi o'rtasida taxminan o'n besh–yigirma yillik kechikish — "vaqt lagi" — mavjud. Ya'ni bugungi tug'ilish ko'rsatkichi bugungi mehnat bozoriga emas, balki taxminan yigirma yildan keyingi mehnat bozoriga ta'sir qiladi. [1;143-144-b.] Bu qonuniyatning ilmiy-amaliy ahamiyati katta: u aholi bandligi siyosatini qisqa muddatli emas, balki uzoq muddatli demografik istiqbolni hisobga olgan holda rejalashtirish zarurligini

ko'rsatadi. Shu bois tarixiy tahlil qisqa davrlarga emas, aynan uzoq davrli dinamikaga tayanishi lozim.

Urbanizatsiya, bandlik tarkibi va mehnat bozoridagi bosim

Vodiydagi bandlik muammosining ildizlari sovet davriga borib taqaladi. O'sha tuzumda ishsizlik faqat kapitalizmga xos illat sifatida qaralgani bois, O'zbekistonga xos demografik jarayonlar va mehnat resurslarining tez o'sishi tahlil markaziga qo'yilmadi. Natijada 1980-yillarning oxiriga kelib respublikada mehnatga layoqatli 1,86 million kishi xalq xo'jaligiga jalb etilmagan, ulardan 780 ming nafari ortiqcha ishchi kuchi sifatida ishlab chiqarishdan tashqarida qolgan edi. Bu tarixiy meros mustaqillikning dastlabki yillaridayoq vodiy mehnat bozoriga og'ir yuk bo'lib tushdi va bandlik muammosining strukturaviy xarakterini belgiladi.

Demografik rivojlanishning bandlikka ta'sir etuvchi muhim jihatlaridan biri urbanizatsiya jarayonidir. 1993-yil boshida vodiy aholisining atigi 33,3 foizi shaharlarda istiqomat qilgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 57,4 foizga, 2020-yilga kelib 59,4 foizga yetdi. Shaharlashuvning bunday tezlashuvi qisman tabiiy o'sish, qisman qishloqdan shaharga migratsiya, qisman esa aholisi ko'paygan qishloq punktlariga shahar maqomi berilishi hisobiga ro'y berdi. Bu jarayon mehnat resurslarini qishloq xo'jaligidan sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga qayta taqsimlash zaruratini keltirib chiqardi va shaharlardagi bandlik muammosini yangicha o'tkirlashtirdi.

Mustaqillikning dastlabki yillari mehnat bozori uchun og'ir sinov bo'ldi. Ishsizlik 1992-yildan davlat tomonidan rasmiy tan olindi; rasmiy ro'yxatga olingan ishsizlik 1992-yilda 0,2, 1993-yilda 0,3 foizni tashkil etdi, biroq bu raqamlar faqat mehnat birjalariga murojaat qilganlar sonidan kelib chiqqani bois real holatni aks ettirmasdi: xalqaro metodologiya asosidagi baholashlarga ko'ra, o'tish davrida ishsizlik qariyb 9–10 foiz atrofida, aholi zich joylashgan vodiya esa yanada yuqori bo'lgan. Bu davrda vodiy tuman va shaharlarida 210 dan ziyod mehnat birjasidan iborat tarmoqli tizim shakllantirildi. Ishsizlarning ijtimoiy tarkibida yoshlar ustun bo'lib, 1995-yilda ro'yxatga olingan ishsizlarning 52,8 foizini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etdi — bu esa bevosita vodiyni yosh demografik tarkibi bilan bog'liq strukturaviy hodisa edi.

Band aholining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi vodiy hududlarining iqtisodiy qiyofasini aks ettiradi. Vodiya qishloq xo'jaligi va sanoat yetakchi o'rin tutgan: Andijon viloyatida aholini ish bilan ta'minlashda qishloq xo'jaligi ustun bo'lsa, Farg'ona viloyatida sanoat, transport va aloqa tarmoqlari nisbatan yuqori salmoqqa ega bo'lgan, Namangan viloyatida esa qurilish, uy-joy-kommunal xo'jaligi va ijtimoiy soha xodimlarining ulushi yuqori bo'lgan. Respublika miqyosida band aholining eng katta qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (qariyb 27 foiz),

sanoat (12–13 foiz), savdo va qurilish tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Sug‘orma dehqonchilikning vodiy iqtisodiyotidagi an‘anaviy yetakchiligi aholi bandligini ham, uning hududiy taqsimlanishini ham asrlar davomida belgilab kelgan tarixiy omildir.

Bandlikning demografik o‘lchovida ayollar mehnatining alohida o‘rni bor. Sanoat korxonalarida band ayollar ulushi vodiy viloyatlarida respublika o‘rtachasidan yuqori bo‘lib (2015-yilda Andijonda 43,4, Namanganda 44,7 foizgacha yetgan), ayni paytda yuqori tug‘ilish darajasi katta yoshdagi ayollarning bir qismini, ayniqsa bola tarbiyasi davrida, faol mehnat bozoridan vaqtincha chetda qoldirgan. Shu bois ayollar bandligini oshirish vodiya mehnat resurslaridan to‘liq foydalanishning muhim zaxirasi bo‘lib qolmoqda.

Demografik-bandlik munosabatining davriylashtirilishi

1991–2025-yillarda vodiya demografik rivojlanish va bandlik o‘rtasidagi munosabatni to‘rt bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich (1991–1995) — o‘tish davri tushkunligi: iqtisodiy aloqalarning uzilishi, slavyan va boshqa yevropalik aholining migratsiyasi hamda ishsizlikning rasmiy tan olinishi. Ikkinchi bosqich (1996–2007) — makroiqtisodiy barqarorlashuv va, ayni vaqtda, 1980-yillar tug‘ilish to‘lqinining mehnat yoshiga kirishi natijasida mehnat resurslarining eng tez o‘sishi. Uchinchi bosqich (2008–2016) — ichki mehnat bozoridagi ortiqcha bosim sharoitida tashqi mehnat migratsiyasining keng tarqalishi va uning bandlik “klapani” vazifasini o‘tashi. To‘rtinchi bosqich (2017–2025) — bandlik sohasidagi tizimli islohotlar, yangi ish o‘rinlari yaratish dasturlari va ishsizlik darajasining bosqichma-bosqich pasayishi. Bu davriylashtirish demografik to‘lqinlar, iqtisodiy konjunktura va davlat bandlik siyosatining o‘zaro ta’siri mezonlariga asoslanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida yevropalik aholining ko‘chib ketishi vodiya uchun o‘ziga xos oqibatlariga ega bo‘ldi. [8; 103-104-b.] Bu aholi sovet davrida barpo etilgan sanoat shaharlari — Farg‘ona, Quvasoy, Marg‘ilon, Qo‘qonda hamda malaka talab qiladigan tarmoqlarda to‘plangan edi. Korxonalar inqirozga uchragan bir paytda malakali kadrlarning ketishi sanoatda ham ish o‘rinlari, ham mutaxassislik salohiyati bo‘yicha ikki yoqlama bo‘shliq yuzaga keltirdi. Shu tariqa bu jarayon bandlikning miqdoriy emas, balki sifat o‘lchovidagi ta’sirini ko‘rsatuvchi muhim tarixiy hodisa bo‘ldi.

Zamonaviy holat va demografik istiqbol

So‘nggi yillarda ichki bandlik siyosati sezilarli kuchaytirildi. Respublika bo‘yicha ishsizlik darajasi 2021-yildagi 9,6 foizdan 2025-yil holatiga 4,9 foizgacha pasaydi; vodiya bo‘yicha 2017–2024-yillarda qariyb 1 million ish o‘rni yaratildi, kambag‘allik darajasi 13,9 foizdan 8,6 foizgacha kamaydi. Ayni paytda ortiqcha mehnat resurslari hosil qilgan bosim tashqi migratsiya orqali qisman yengillashtirilmoqda: 2025-yil holatiga xorijda mehnat qilayotgan

o'zbekistonliklar soni 1,9 million kishiga yetgan bo'lib, ularning salmoqli qismi aynan vodiylar viloyatlaridan.[5; 171-172-b.]

Demografik jarayonlarning bandlikka ta'sirini baholash istiqbol tahlilisiz to'liq bo'lmaydi. Xalqaro tashkilotlarning prognozlariga ko'ra, O'zbekiston aholisi 2030-yilga borib 40 milliondan, 2050-yilga borib 52 milliondan oshishi kutilmoqda; aholining qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi va har yili mehnat bozoriga 780 mingdan ortiq yangi kishi kirib kelmoqda. Bu ko'rsatkichlarning eng yuqori darajada namoyon bo'lish maydoni aynan Farg'ona vodiysidir. "Vaqt lagi" qonuniyatidan kelib chiqib, bugungi demografik ko'rsatkichlar taxminan yigirma yildan keyingi mehnat bozori holatini oldindan belgilaydi; demak, vodiylar mehnat bozoridagi bosim yaqin o'n yilliklarda ham saqlanib qoladi va yangi ish o'rinlari yaratish zarurati izchil kuchayib boradi.

Xulosa. 1991–2025-yillarda Farg'ona vodiysida demografik rivojlanish aholi bandligini ta'minlashning bir vaqtning o'zida ham asosiy manbai, ham asosiy muammosi bo'lib qoldi. Vodiylar aholisi qariyb ikki baravar o'sib, 10,8 million kishidan oshdi; mamlakat hududining atigi 4,1 foizini egallagan mintaqada respublika aholisining qariyb 28,6 foizi jamlanishi mehnat resurslariga bo'lgan bosimni tarixan keskinlashtirdi va bandlikning og'irlik markazini qishloq xo'jaligidan sanoat, xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik hamda tashqi mehnat migratsiyasiga tomon siljitdi.

Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, demografik jarayonlar bilan mehnat resurslari o'sishi o'rtasida taxminan o'n besh–yigirma yillik "vaqt lagi" qonuniyati amal qiladi. Bu qonuniyat aholi bandligi siyosatini uzoq muddatli demografik istiqbol asosida rejalashtirishni, mehnat bozoridagi bo'lajak bosimni oldindan hisobga olishni taqozo etadi. Vodiylarning yuqori o'sish salohiyati saqlanib qolayotgani sababli, mavjud mehnat resurslaridan unumli foydalanish va yangi barqaror ish o'rinlari yaratish yaqin o'n yilliklarda ham ustuvor strategik vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov K. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. 3-nashr. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2019.
2. Abdurashidova N.A. O'zbekistonda demografik siyosatning shakllanishi va rivojlanishi (1991–2020): tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent: O'zR FA Tarix instituti, 2021.
3. Qodirov R. Farg'ona mintaqasi aholisi va mehnat resurslari. – Toshkent: Navro'z, 2016.

4. Tolmetova Z.A. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari: geografiya fanlari doktori (DSc) diss. – Toshkent: O'zMU, 2017.
5. Hasanov R., O'ljayeva Sh., Musayev O. O'zbekistonning eng yangi tarixi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2022.
6. Mamatqulov A., Qodirova M. O'zbekistonda aholini takror barpo etishning tabiiy harakati ko'rsatkichlarini statistik baholash // ResearchGate, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Demografik ko'rsatkichlar (2020–2026). – Toshkent. <https://stat.uz>.
8. Farg'ona viloyat davlat arxivi (FVDA), 1220-fond (Andijon viloyat ijroiya qo'mitasi), 3-ro'yxat.